

QADIMGI XITOIDA SIYOSIY MADANIYATGA DOIR QARASHLAR RIVOJI

Yaxshiboyev Sh. Q. – Urganch davlat universiteti dotsenti v.b., falsafa doktori(PhD)

Аннотация

Mazkur maqolada qadimgi Xitoyda siyosiy madaniyatga doir qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilingan. Konfutsiychilik, daosizm va legizm ta'limotlarining davlat boshqaruvi, siyosiy tartib va jamiyat hayotiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, qadimgi Xitoy mutafakkirlarining siyosiy madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan baholangan.

Kalit so'zlar: qadimgi Xitoy, siyosiy madaniyat, konfutsiychilik, daosizm, legizm, davlat boshqaruvi, siyosiy tafakkur, Konfutsiy.

Аннотация

В данной статье анализируются формирование и развитие взглядов на политическую культуру в Древнем Китае. Освещается влияние учений конфуцианства, даосизма и легизма на государственное управление, политический порядок и общественную жизнь. Также даётся научная оценка вклада древнекитайских мыслителей в развитие политической культуры.

Ключевые слова: Древний Китай, политическая культура, конфуцианство, даосизм, легизм, государственное управление, политическая мысль, Конфуций.

Abstract

This article analyzes the formation and development of views on political culture in Ancient China. It examines the influence of Confucianism, Taoism, and Legalism on state governance, political order, and social life. The contribution of ancient Chinese thinkers to the development of political culture is also scientifically assessed.

Keywords: Ancient China, political culture, Confucianism, Taoism, Legalism, state governance, political thought, Confucius.

Qadimgi Xitoyda siyosiy madaniyatga oid qarashlar miloddan avvalgi VI–III asrlarda shakllanib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan. Bu davrda davlat boshqaruvi, hokimiyatning mohiyati, jamiyatdagi tartib va insonning siyosiy

xulq-atvori haqida turli falsafiy ta'limotlar vujudga kelgan. Ayniqsa, konfutsiychilik, daosizm va legizm maktablari siyosiy madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Konfutsiy (mil.avv. 551–479) ta'limotida siyosiy madaniyatning asosi axloqiy fazilatlar va adolatli boshqaruv deb qaralgan. Unga ko'ra, hukmdor xalq uchun namuna bo'lishi, davlatni qonunlardan ko'ra ko'proq ma'naviy qadriyatlar va odob-axloq tamoyillari asosida boshqarishi lozim. Konfutsiy fuqarolarning hokimiyatga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va jamiyatda uyg'unlikni saqlash g'oyasini ilgari surgan.

Daosizm asoschisi Lao Szi esa siyosiy hayotda tabiiylik va aralashuvning minimal darajada bo'lishini targ'ib qilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi xalqning tabiiy hayotiga ortiqcha aralashmasligi kerak. Shundagina jamiyatda barqarorlik va osoyishtalik ta'minlanadi.

Legizm vakillari, xususan Shan Yan va Han Fey, kuchli markazlashgan davlat va qat'iy qonunlar tarafdori bo'lganlar. Ular siyosiy tartibni saqlashning asosiy vositasi sifatida qonun va jazoni ko'rganlar. Legizm g'oyalari keyinchalik Xitoy imperiyasining markazlashgan boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Konfutsiychilikka murojaat qilmasdan Sharqiy Osiyoda misli ko'rilmagan, jadal iqtisodiy rivojlanishni tushuntirib bo'lmaydi. Konfutsiy ta'limoti axloqiy-siyosiy xarakterga ega bo'lib, unda marosim odob-axloqi asos bo'lgan, ya'ni turli marosimlarni bajarish jarayonida odamga ongsiz darajada singdirilgan bunday xulq-atvor qoidalari tizimi. Rituallashtirilgan odob-axloq qoidalari hissiy sohani tartibga solgan, u ma'lum bir vaziyatda odam o'zini qanday tutishi kerakligi haqida gapirgan. Uningcha davlatni to'g'ri tartibli rivojida har bir narsa o'z o'rnida bo'lishi, ota ota bo'lishi, farzand farzand o'rnida bo'lishiga ishora qilingan. Uning fikricha, hayotda har bir ish axloqdan kelib chiqib, amalga oshirilishi lozim. Axloqdan boshqa narsalarga tayangan holda amalga oshirilganida, adolat qaror topmaydi. Adolatning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi yana bir muhim omil bu—manfaatdir. Konfutsiy adolat va manfaat mavzusini shunday hukmga bog'laydi: “Komil inson adolatni, pastkash esa manfaatni o'ylaydi”. Konfutsiyga bu davlatda axloq yordamida muayyan munosabatlar tizimini qurish uchun kerak edi. Konfutsiyning so'zlariga ko'ra, davlat do'stona oila kabi bo'lishi kerak edi, bu yerda imperator ota sifatida ishlaydi. U do'stlikni foydali va zararli shaklida ikki qismga ajratadi: “Rostgo'y, samimiy va tushunchali do'st foydali. Ikkiyuzlamachi, ko'p gapiruvchi va subutsiz do'st esa zararlidir.” Konfutsiyga: “Bir mamlakatga uni boshqarish uchun chaqirilganingizda birinchi bo'lib qilgan ishingiz nima bo'lar edi?” deb so'raganida shunday javob bergan: “Birinchi bo'lib tilni tuzatar edim. Til to'g'ri bo'lmasa, so'zlar tushunchalarni yaxshi ifodalay olmaydi. Tushunchalar yaxshi tushunilmasa, qilinishi kerak bo'lgan ishlar yaxshi amalga

oshmaydi. Kerakli ishlar amalga oshirilmas ekan, axloq va madaniyat buziladi. Axloq va madaniyat buzilganida, adolatdan uzoqlashiladi. Adolatdan uzoqlashilganda esa xalq zaiflik va sarxushlik ichida qoladi va nima qilishini bilmay qoladi.

Shu sababli har bir aytiluvchi so‘z to‘g‘ri va tushunarli bo‘lishi kerak. Hech bir narsa tilchalik ahamiyatga ega emas”¹. Konfutsiylikning axloqiy jihati, boshqa jihatlaridan yanada ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Bu ta’limot hukmdorlar uchun boshqaruv san’ati, mansabdorlar uchun siyosiy bir axloq, xalq uchun esa biron bir urf-odatga bog‘liqlik ko‘rinishidadir. Konfutsiylik tufayli xitoyliklarning idrokini o‘zgartirgan mustahkam, qobiliyatli axloqiy tizim yaratildi. Konfutsiylik ijobiy rol o‘ynadi, chunki bu ta’limotning tarqalishi qonunchilikka asoslangan qattiq totalitar tuzumdan qochishga imkon berdi. Qisqa vaqt ichida o‘rta Qirollikda tartib o‘rnatildi va tez orada Xitoy madaniyati inqiroz holatidan farovonlik holatiga o‘tdi. Konfutsiy shu o‘rinda madaniyat va tushunchalar tarixi jihatidan juda muhim bo‘lgan so‘zini aytadi: “Shogirdlarim! Esingizda bo‘lsin. Zolim hukumat vahshiy hayvondan ham battardir”². Biroq, Konfutsiylikning kamchiliklari bor. Konfutsiy ta’limoti Xitoy jamiyatini shaxsiyat haqida gapirish imkoniyatidan deyarli mahrum qildi. Konfutsiy tizimida “fuqaro”, “oila a‘zosi”, “nisbiy” tushunchalari mavjud, ammo shaxs tushunchasi yo‘q. Bundan tashqari, ijtimoiy sinf ovoz berishi keskin kamaygan bir paytda rivojlangan sanoat jamiyatlarida din va “postmateratistik” qadriyatlar nafaqat saylovlarga ta’sir etuvchi, balki tobora kuchayib borayotgan ta’sirga ega bo‘ldi. Ushbu ijtimoiy hodisalarning barchasini siyosiy madaniyat nuqtai nazaridan tushuntirish zarurati paydo bo‘ldi va siyosiy madaniyat tadqiqotchilari ularga yangi texnik va empirik imkoniyatlar yordamida turli xil nuqtai nazardan javob berishdi.

Darhaqiqat, hozirgi kunga qadar siyosiy madaniyat yondashuvi demokratlashtirish, mamlakatda demokratiyaning barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish, millatlar va xalqlar o‘rtasidagi nizolar, inson taraqqiyoti va boshqalar kabi turli makroiqtisodiy hamda siyosiy hodisalar bilan madaniy bog‘liqlikka qaratilgan edi, ammo shaxsning siyosiy psixologiyasining madaniy oqibatlari asosan e’tibordan chetda qoldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, siyosiy madaniyatni tadqiq etishning quyidagi yondashuvlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Antik davr yondashuvi – Aristotel, Platon kabilarning qarashlarini kiritish mumkin.
2. G‘arb klassik yondashuvi – Jan-Jak Russo, Monteskyo, Volter, Gerder kabilarning qarashlarini kiritish mumkin.

¹ Динларни таниш ва динлар тарихи/ Али Шариатий/ Анқара-1996, 149-бет

² Динларни таниш ва динлар тарихи/ Али Шариатий/ Анқара-1996, 159-бет

3. Sharq klassik yondashuvi – Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, A.Navoiy kabilarning qarashlarini kiritish mumkin.
4. G‘arb zamonaviy yondashuvi – Almond, Verba, Gegel, Fayner, Xantington kabilarning qarashlarini kiritish mumkin.
5. Rus maktabi yondashuvi – S. N. Gavrov, G.L.Tulchinskiy, A.I.Solovyev, Ye.V.Fedorova, P.A.Sigankov, N.A.Baranov kabilarning qarashlarini kiritish mumkin. Ushbu yondashuvlarga o‘zbek milliy olimlarining qarashlarini ham alohida kiritib o‘tish lozim. Jumladan, siyosiy madaniyatni tadqiq etgan olimlarimizdan N.Jo‘rayev, I.Ergashev, U.Idirov, B.To‘ychiyev, M.Qirg‘izboyev, V.Qo‘chqorov, T.Alimardonov, O.Sirojov, N.Qalqonov, N.Umarova kabilarning tadqiqotlari ahamiyatli. Ushbu yondashuvlarning barchasini umumlashtirgan asosiy jihat shundaki, har bir nazariyotchi siyosiy madaniyatni tadqiq etishda avvalo, fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy bilimi hamda ularning qadriyatlari bilan bog‘laydi. Shu jihatdan kelib chiqib, siyosiy madaniyatning o‘ziga xos jihatini uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy transformatsiyasi jarayonlarida aholining unga tayyorligi va bu jarayonlarni qabul qilishi, ishtirok etishini anglatishidir.